

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/29.12.2022.Ss.21.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

BOYMATOV FARHODJON ZIYODQO‘ZI O‘G‘LI

TURIZM YO‘NALISHI O‘ZBEKISTON TASHQI SIYOSATINING
MUHIM OMILI SIFATIDA

23.00.04 – Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqa taraqqiyotining siyosiy muammolari

SIYOSIY FANLAR BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)

Boymatov Farhodjon Ziyodqo‘zi o‘g‘li

Turizm yo‘nalishi O‘zbekiston tashqi siyosatining muhim omili sifatida..... 3

Бойматов Фарходжон

Направление туризма как важный фактор внешней политики Узбекистана..... 23

Boymatov Farhodjon

The direction of tourism as an important factor in Uzbekistan’s foreign policy.... 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 49

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/29.12.2022.Ss.21.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

BOYMATOV FARHODJON ZIYODQO‘ZI O‘G‘LI

TURIZM YO‘NALISHI O‘ZBEKISTON TASHQI SIYOSATINING
MUHIM OMILI SIFATIDA

23.00.04 – Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaq taraqiyotining
siyosiy muammolari

SIYOSIY FANLAR BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi qoshidagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2PhD/Ss190 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<http://nuu.uz>) hamda «Ziyonet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qo‘chqorov Vahobjon Hoshimovich
siyosiy fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Kasimova Nazokat Anvarovna
siyosiy fanlar doktori professor;

Nazarov Nasriddin Ataqulovich
siyosiy fanlar doktori professor

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi DSc.03/29.12.2022.Ss.21.02 raqamli ilmiy kengashning 2024 yil «___» _____ soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100047, Toshkent sh., Amir Temur ko‘chasi, 20-uy. Tel.: (71) 233-45-21; faks: (998971) 233-52-24; e-mail: sharq_ilmiy@mail.ru.)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100047, Toshkent sh., Amir Temur ko‘chasi, 20-uy. Tel.: (71) 233-45-21.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «___» _____ kuni tarqatildi.

(2024 yil «___» _____ dagi ____ raqamli reyestr bayonnomasi).

D.B. Sayfullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

D.I. Madaminova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, siyosiy fanlar doktori (DSc), dotsent

E.S. Sultanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, s.f.d. professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida turizm siyosati global ahamiyatga molik tizim sifatida qator davlatlarning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohaları taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatib, tinchlik, barqaror taraqqiyot va xalqaro hamjihatlikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Turizm yo'nalishi "xalq diplomatiyasi"ni akkumulyatsiya qilish orqali xalqaro munosabatlarning mo'tadillashishiga, yangi turistik marshrutlarning yaratilishi hamda xalqaro va milliy turizm integratsiyasini rivojlantirish orqali davlatlararo madaniy aloqalarni mustahkamlash omiliga aylanmoqda. Mazkur omillar nafaqat ilmiy-konseptual jihatdan, balki aniq integratsion platformani takomillashtirish nuqtai nazaridan ham dolzarblik kasb etmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarning siyosiy tahlilga ixtisoslashgan ilmiy-tadqiqot markazlarida xalqaro munosabatlar tizimida turizm siyosati va industriyasini har tomonlama va kompleks o'rganishga bo'lgan qiziqish ortgani holda, axborot hurujlari, ekologik, etnik ziddiyatlar, xavf-xatarlarni tahlil qilish, integratsiyaning institusional, tashkiliy va meyoriy asoslarini mustahkamlash borasidagi ilmiy izlanishlar alohida e'tiborga molik. Mintaqada turizm sohasini rivojlantirish, samaradorligini oshirish va optimal boshqarish strategiyasini shakllantirish, uning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini ta'minlash, tizim boshqaruvini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega ekanligini hisobga olgan holda samarali mexanizmlarini tadqiq etish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

O'zbekiston taraqqiyotning yangi bosqichida turizmga oid davlat siyosatida tub islohotlarning amalga oshirilishi tizimli va bosqichma-bosqich ravishda davom etmoqda. Turizm davlatning siyosiy, ijtimoiy, madaniy rivojlantirishning muhim tarmog'iga aylandi. Turizmni real iqtisodiyotga yo'naltirish, undan keladigan daromad miqdorini oshirish, uning mamlakat va jahon xalqlari o'rtasidagi konstruktiv madaniy muloqot mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda, mamlakat turistik brendini xalqaro maydonda tanitish bo'yicha strategiyasini tahlil qilish, "...turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog'iga aylantirish biz uchun ustuvor vazifa bo'lib qoladi"¹. Shunga muvofiq turizm siyosatini xalqaro miqyosdagi sayyohlik sohasiga integratsiyalashtirish modelini ishlab chiqish, mintaqamizda real integratsiya jarayonlarining ajralmas bo'g'iniga aylantirish dolzarb vazifalar sirasidandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrda PF-4861-son "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 16-avgustdagi PQ-3217-son "2018-2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida", 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi <http://uza.uz>.

yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagi “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mummaoning o‘rganilganlik darajasiga va yo‘nalishlariga qarab tadqiqotchi olimlarni bir necha guruhga ajratdik.

Birinchi guruh – tadqiqotning nazariy asoslari xorijlik olimlar A.Y. Aleksandrova, M.B. Birjakov, I.V. Zorin, V.A. Kvartalnoe² kabilar tomonidan turizmning xalqaro savdo va xizmatlardagi roli va uning davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyati o‘rganilgan.

Ikkinchi guruh – xalqaro turizmni davlatlarning iqtisodiyotiga ta’sirini N.Y. Lusishin, A. Lyubitseva, M.M. Marinin, M.A. Morozov, N.Y. Volodomanova, G.A. Papiryan³ lar tadqiq etganlar.

Uchinchi guruh – xalqaro turizmning tashkiliy-huquqiy, siyosiy jihatlari hamda uning xalqaro munosabatlarga ta’siri N. S. Barchukova, L. P. Voronkova, V.Y. Voskresenskiy, V.D. Uvarov, K.G. Borisov, V.S. Senin, Ye.L. Dracheva, Y.V. Zabayev, D.K. Ismayevlarning⁴ tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

To‘rtinchi guruh – xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida turizmning iqtisodiy omillarini xorijiy tadqiqotchilar R. Barton, P. Berneker, A. Bul, F. Vellas, A. Matiyeson, R. Mill, D. Pirs, X. Ryutter, X. Fraytag, V. Freyer, Dj. Xolloveylar⁵ tadqiq qilishgan.

O‘zbekistonda xalqaro turizmning iqtisodiy, falsafiy, huquqiy, siyosiy jihatlari M.T. Alimova, A.A. Eshtayev, B.X. Turayev⁶ kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida amalga oshirilgan. Mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan turizm rivojlanishi va uning jahon bozoriga integratsiyalashuvi, shuningdek, xalqaro munosabatlar tizimidagi o‘ziga xos xususiyatlari va ahamiyatini K.X. Abduraxmonov, B.SH. Safarov, B. To‘ychiyev, O.H. Hamidovlar⁷, turizmning madaniyatlararo muloqot vositasi sifatidagi ahamiyatini S.A. Po‘latova, S. Usmanova, A. Muzaffarov, M. Usmanovlar⁸ o‘rganishgan.

O‘zbekiston turizm siyosati va uning xalqaro munosabatlar tizimida muhim subyekt sifatidagi jihatlarni I.S. Tuxliyev, R. Hayitboyev, B.Sh. Safarov,

² Ushbu mualliflarning tadqiqotlari dissertasiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhatida berilgan.

³ Ushbu mualliflarning tadqiqotlari dissertasiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhatida berilgan.

⁴ Ushbu mualliflarning tadqiqotlari dissertasiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhatida berilgan.

⁵ Ushbu mualliflarning tadqiqotlari dissertasiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhatida berilgan.

⁶ Ushbu mualliflarning tadqiqotlari dissertasiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhatida berilgan.

⁷ Ushbu mualliflarning tadqiqotlari dissertasiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhatida berilgan.

⁸ Ushbu mualliflarning tadqiqotlari dissertasiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhatida berilgan.

G.R. Tursunova⁹ kabilarning xalqaro huquqqa oid tadqiqotlarida kuzatish mumkin. Shuningdek, muammoning huquqiy jihatlarini S.T. Tashmurotov, M.Q. Pardayevlarning¹⁰ ilmiy maqolalarida ko‘rish mumkin. Mamlakatimizda turizmning ayrim jihatlari boshqa fanlar doirasida ham o‘rganilgan bo‘lsada, O‘zbekiston Respublikasining turizm bo‘yicha xalqaro, mintaqaviy va ikki tomonlama hamkorligi va uning siyosiy munosabatlarga ta’siri masalalari bo‘yicha mukammal tadqiqotlar mavjud emas. O‘zbekistonning turizm sohasidagi xalqaro, mintaqaviy tashkilotlar va davlatlar bilan hamkorlik qilish istiqbollari, xalqaro tashkilotlari doirasidagi hamkorlikning siyosiy, huquqiy jihatlarini ushbu tadqiqot ishining mazmunini belgilaydi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Harakatlar strategiyasini bajarish davrida mamlakatimizda ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash masalalari” mavzui doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda turizm yo‘nalishining rivojlanishi orqali uning davlat tashqi siyosatining muhim omiliga aylanishi, xalqaro va milliy munosabatlar tizimidagi ahamiyatini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

turizmni xalqaro munosabatlarni rivojlantiruvchi mexanizm sifatida tadqiq qilish;

turizm taraqqiyotida “Soft Power” va madaniyatlararo kommunikatsiyalardan foydalanish samaradorligi nimalarga bog‘liqligini aniqlash;

turizm siyosati “Xalq diplomatiyasi” o‘rnatishning muhim yo‘nalishi ekanligini aniqlash;

O‘zbekistonda xalqaro turizm rivojlanishining genezisi va evolyusiyasini tahlil qilish;

Yangi O‘zbekistonda turizm sohasi rivojlanishining asoslari va tamoyillarining siyosiy jihatlarini ochib berish;

O‘zbekistonning turizm siyosati va uning transchegaraviy madaniy aloqalarni rivojlantirishdagi roli va ahamiyatini ochib berish;

O‘zbekistonning turizm sohasida xalqaro hamkorlikning zamonaviy tendensiyalarini ko‘rsatib berish;

O‘zbekiston turistik brendini xalqaro maydonda tanitish bo‘yicha strategiyasini tahlil qilish;

O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishning xalqaro munosabatlar tizimidagi ustuvor yo‘nalishlarini tadqiq qilish.

Tadqiqotning obyektini O‘zbekistonda turizm yo‘nalishining xalqaro munosabatlar tizimiga ta’sirining ijtimoiy-siyosiy jihatlarini tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti O‘zbekistonda turizm yo‘nalishining tashqi siyosat va xalqaro munosabatlarni rivojlantirishdagi o‘rni va roli, mahalliy va xalqaro turizmning asosiy shakllari va yo‘nalishlarini funksional o‘rganish, tizimli tadqiq

⁹ Тухлиев И. С., Найитбоев Р., Сафаров Б. Ш., Турсунова Г. Р. Туризм асослари. Дарслик. – Т.: Фан ва технология, 2014.

¹⁰ Ushbu mualliflarning tadqiqotlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhatida berilgan.

qilish, ekoturizm, gastronomik turizm, tibbiyot, ziyorat va madaniy turizm faoliyatini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz, sintez, umumlashtirish, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, prognozlash, deduksiya va induksiya, tizimli tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasining chuqur o‘ylangan, ochiq, pragmatik va konstruktiv tashqi siyosati natijasida qo‘shni davlatlar bilan samarali hamkorlik yo‘lga qo‘yilgani, “Markaziy Osiyo ruhi”ning o‘zaro siyosiy ishonch muhiti hamda mintaqaning xalqaro subyekt sifatida o‘rni va jozibadorligi mustahkamlanib borayotganligi “Markaziy Osiyo turizm xabi”ni yaratish uchun asos bo‘lishi isbotlangan;

jahon siyosiy maydonidagi beqaror va strategik mavhum vaziyat, mintaqalarda sodir bo‘layotgan turli nizo va ixtiloflar, savdo urushlari oqibatida proteksionizm kuchayib, yangi-yangi to‘siqlarning paydo bo‘lishi va global xavfsizlik institutlari faoliyatidagi qarama-qarshiliklarning turizmga ko‘rsatadigan salbiy va ehtimoliy ta‘siridan kelib chiqib, “Xalqaro turizm ekspertlar kengashi”ni tashkil etish zarurati asoslab berilgan;

O‘zbekiston tashqi siyosatidagi an‘anaviy sheriklar va boshqa yaqin xorijiy hamkor davlatlar bilan turizm sohasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlik geografiyasini kengaytirish, ikki va ko‘p tomonlama turizm diplomatiyasi samaradorligini oshirish hamda milliy turizm brendini yaratishga qaratilgan siyosiy strategik vazifalar asosida O‘zbekistonning xorijdagi diplomatik vakolatxonalari va elchixonalarida “Turizm attachesi” lavozimini joriy qilish taklifi dalillangan;

xorijda istiqomat qilayotgan o‘zbek vatandoshlarni qo‘llab-quvvatlash va ularning milliy turizmni xalqaro miqyosda keng targ‘ib etishdagi faol say-harakatlarlarini kuchaytirish, xorijiy sayyohlar va vatandoshlar o‘rtasida do‘stlik, madaniy-diplomatik muloqot ko‘prigini mustahkamlash maqsadida vatandoshlar va raqamli turizm Milliy dasturini yaratish lozimligi asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“xalqaro turizm” tushunchasining xalqaro darajada siyosiy mohiyati siyosatshunoslik fani doirasida ilk bor ilmiy jihatdan o‘rganilgan. Xalqaro turizm Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi yaqin tarixiy va do‘stona munosabatlarni, ishonch va yaxshi qo‘shnichilikni targ‘ib qilishga, ikki mintaqadagi barcha xalqlar va mamlakatlar manfaatlariga xizmat qilishi isbotlab berilgan;

Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi savdo va investitsion, transport, energetika, innovatsiya va yashil texnologiyalar sohasidagi hamkorlikni kengaytirish, aniq loyihalar va hamkorlik dasturlarini amalga oshirish, shuningdek, turizm, ta‘lim, sog‘liqni saqlash sohalarida o‘zaro aloqalarni kengaytirishga qaratilgan keng qamrovli fikr almashish va takliflar ishlab chiqish ilm-fan va madaniyat, ikki mintaqada barqarorlik va xavfsizlikni ta‘minlash kabi masalalar ijobiy hal qilinishiga olib kelishi ilmiy asoslab berilgan;

xalqaro turizm orqali Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘zaro aloqalari mustahkamlanishi, Afg‘oniston bilan sheriklik munosabatlari rivojlanishi uchun zamin yaratilishi ochib berilgan;

Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi xalqaro turistik aloqalarini o‘rnatilishi mintaqada barqarorlik va xavfsizlikni hamda turistik xavfsizlikni ta‘minlanishiga olib kelishi nazariy jihatdan o‘rganilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi ilmiy va nazariy xulosalarni tartibga soluvchi va ijro etuvchi ma‘lumotlarga asoslanganligi, shuningdek, tadqiqot natijalari va xulosalarining ilmiy, amaliy va pedagogik faoliyat mobaynida aprotatsiyadan o‘tganligi orqali ta‘minlanadi.

Tadqiqotda ilmiy va huquqiy manbalarga havolalar taqdim etilgan bo‘lib, jumladan, xalqaro huquqiy normalar, O‘zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligi va xorijiy mamlakatlar qonunlari, xalqaro universal va mintaqaviy tashkilotlar, O‘zbekiston va xorijiy davlatlarning rasmiy veb-resurslariga asoslangan. Tadqiqot natijalari bir nechta xalqaro va milliy nashrlarda chop etilgan. Tadqiqot natijalarining dolzarbligi, amaliyotga tatbiq etilishi va ahamiyati rasmiy davlat organlari tomonidan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati huquqiy tartibga solishning turli xalqaro va milliy manbalari tahlil qilinganligi, O‘zbekiston Respublikasida xalqaro turizm sohasining ikki tomonlama hamda ko‘p tomonlama rivojlantirish bo‘yicha davlat siyosati o‘rganilganligi, dissertatsiya xulosalari oliy ta‘lim tizimida “Xalqaro turizm” fanini o‘qitish jarayonida qo‘llanilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O‘zbekiston Respublikasining xalqaro munosabatlar tizimida turizm sohasining institusional mexanizmlarining takomillashtirilganligi, xususan, mazkur yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borish hamda sohaga oid innovatsion jarayonlarning amalga tatbiq etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti bo‘yicha olingan ilmiy natijalarning amaliyotga joriy etilganligini tasdiqlovchi quyidagi xulosalar olingan:

O‘zbekiston Respublikasining chuqur o‘ylangan, ochiq, pragmatik va konstruktiv tashqi siyosati natijasida qo‘shni davlatlar bilan samarali hamkorlik yo‘lga qo‘yilgani, “Markaziy Osiyo ruhi” o‘zaro siyosiy ishonch muhiti hamda mintaqaning xalqaro subyekt sifatidagi o‘rni va jozibadorligi mustahkamlanib borayotganligi “Markaziy Osiyo turizm xabi”ni yaratish uchun asos bo‘lishi isbotlanganligi hamda O‘zbekiston tashqi siyosatidagi an‘anaviy sheriklar va boshqa yaqin xorijiy hamkor davlatlar bilan turizm sohasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlik geografiasini kengaytirish, ikki va ko‘p tomonlama turizm diplomatiyasi samaradorligini oshirish hamda milliy turizm brendini yaratishga qaratilgan siyosiy strategik vazifalar asosida O‘zbekistonning xorijdagi diplomatik vakolatxonalar va elchixonalarida “Turizm attashesi” lavozimini joriy qilish haqidagi taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi turistik xizmatlarini segmentatsiyalash jarayonida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligining **2021-yil 6-oktabrdagi** 05 12-01-4448-son dalolatnomasi). Natijada

O‘zbekiston turistik xizmatlari bozorini segmentatsiyalash jarayoni imkoniyatlari kengaygan;

tadqiqot xulosalari jahon siyosiy maydonidagi beqaror va strategik mavhum vaziyat, mintaqalarda sodir bo‘layotgan turli nizo va ixtiloflar, savdo urushlari oqibatida proteksionizm kuchayib, yangi-yangi to‘siqlarning paydo bo‘lishi va global xavfsizlik institutlari faoliyatidagi qarama-qarshiliklarning turizmga ko‘rsatadigan salbiy va ehtimoliy ta‘siridan kelib chiqib, “Xalqaro turizm ekspertlar kengashi”ni tashkil etish zarurati asoslab berilganligi O‘zbekiston liberal-demokratik partiyasining ish rejasiga kiritilgan tadbirlarni amalga oshirishda o‘ziga xos manba vazifasini o‘tagan hamda ushbu partiya faoliyatidagi dolzarb masalalarni samarali hal etishda foydalanilgan (Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston liberal demokratik partiyasining 2021-yil 29-sentabrdagi 01-27/733-son dalolatnomasi). Natijada O‘zbekistonning turizm siyosati va uning transchegaraviy madaniy aloqalarni rivojlantirishdagi faoliyati qo‘shni davlatlar bilan integratsiyalashuvi yo‘nalishlari diversifikatsiya qilingan;

xorijda istiqomat qilayotgan o‘zbek vatandoshlarni qo‘llab-quvvatlash va ularning milliy turizmni xalqaro miqyosda keng targ‘ib etishdagi faol say-harakatlarlarini kuchaytirish, xorijiy sayyohlar va vatandoshlar o‘rtasida do‘stlik, madaniy-diplomatik muloqot ko‘prigini mustahkamlash maqsadida vatandoshlar va raqamli turizm Milliy dasturini yaratish taklifidan O‘zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasi huzuridagi millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasining o‘z faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasining 2021-yil 26-noyabrdagi 14-07-2160-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada Qo‘mitaning xorijiy mamlakatlar bilan do‘stona xalqaro madaniy-ma‘rifiy aloqalarni yo‘lga qo‘yish, o‘zaro manfaatli rivojlantirish mavzusidagi uchrashuvlari, tadbirlari, ilmiy-amaliy konferensiyalari va seminarlari mazmuni boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan, 4 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shundan 2 ta maqola xorijiy jurnallarda, 5 ta maqola respublika jurnallarida e‘lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 134 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarining asosiy ustuvor yo‘nalishlari bilan mosligi, tadqiq qilinayotgan muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon qilingan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ilmiy yangiligi

aniqlangan, ilmiy tadqiqot usullari, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, e'lon qilingan ishlar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan, ishning tuzilishi va hajmi ko'rsatilgan.

Dissertatsiyaning "Xalqaro turizmni rivojlanishining nazariy-metodologik asoslari" deb nomlangan birinchi bobida turizmning davlat ichki va tashqi siyosatida tutgan o'rni tahlil qilingan.

"Turizm" so'ziga turli davrlarda turlicha ta'rif va izohlar, qarashlar berilgan. Bu so'z to'g'risida turli xil tushuncha va ma'nolar bo'lib, xar kim unga o'z mutaxassisligi va dunyoqarashidan kelib chiqib yondashadi. Shuningdek, ilmiy manbalarda ham turizmning ta'riflari xaqida turli ma'lumotlar mavjud.

O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonunida, "turizm jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda bir yildan oshmagan muddatga jo'nab ketishi (sayohat qilishi)dir" deb ta'kidlanadi¹¹.

Quyidagi lug'atlardan olingan manbaga asosan, Turizm (frans. tour - sayr, sayohat), sayyohlik - sayohat (safar) qilish; faol dam olish turlaridan biri. Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan bir yil muddatga jo'nab ketishi (sayohat qilishi) tushunilsa,¹² yana boshqa lug'atlarda berilishiga ko'ra "Tour" so'zi lotinchadan olingan bo'lib, doiraviy shakl ma'nosini anglatadi. Bu so'z o'z ma'nosini o'zgartirmasdan boshqa tillariga ham kirib kelgan. Masalan, fransuz tilida "aylanish" ma'nosiga to'g'ri keluvchi "tourner" va "tour" so'zlari hozirgi kunda ham ishlatilmoqda. Ingliz tilida esa turizm so'zi, turist so'zidan keyin 1811-yilda yuzaga kelgan. Nemis tilida esa faqatgina "auslander" (ajnabiy yoki xorijiy) so'zi ishlatilar edi. 1958-yilda nemis tilida alohida e'tiborga olinib turizmning ekvivalenti bo'lmish "fremdenverkehr" yoki "tourismus", turist so'zining ekvivalenti esa "turist" tarzida qo'llanila boshlangan. Turizmning tub mazmunidan kelib chiqib, Arab olimi Ibn Xaldunning (1200-1300-yillar)sayohat va turizm - davlat miqyosida tovar savdosini rivojlantirish manbai, karvonsaroylar qurish savdogarlar orqali davlatga qo'shimcha daromadlarni ko'zlash demakdir¹³. degan tushuncha bizga qo'shimcha ma'lumot berishi mumkin.

Turizm – iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri. Shuning uchun ham mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, ushbu tarmoqni yanada takomillashtirish zarur, buni davrning o'zi taqozo etmoqda. O'zbekiston ham sayohat, ham ziyorat uchun qulay mamlakat. Chunki ona zaminimizda butun dunyoga ma'lum va mashhur bo'lgan ajdodlarimiz mangu qo'nim topgan. Ular qoldirgan boy ma'naviy-madaniy merosga xalqaro maydonda qiziqish juda katta. Sohoni yanada rivojlantirish uchun, avvalo, zarur infratuzilmani takomillashtirish shart.

¹¹Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.07.2019 y., 03/19/549/3446-son

¹²Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти Тошкент: Б. 722

¹³Ташмурадов Т. Международный туризм: справочник менеджера (учебное пособие). Ташкент, ТашГЕУ, 1993, 84 стр.

Sayyohlik sohasi bugungi kunning eng muhim iqtisodiy sohalaridan biriga aylandi. Shu bois dunyoning ko‘plab davlatlari ushbu sohani yanada rivojlantirish, bu borada tegishli infratuzilmani jahon standartlari darajasida yaratish va sayyohlar oqimini oshirish bo‘yicha barcha chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. 2015-yilda eng ko‘p xorijlik mehmonlarni qabul qilishda Fransiya (83,7 million), AQSh (74,8 million), Ispaniya (65,0 million), Xitoy (55,6 million) va Italiya (48,6 million) kuchli beshlikda turishibdi. Germaniya, Buyuk Britaniya, Rossiya va Meksika kuchli o‘ntalikdan joy olgan. Biroq bu ko‘rsatkich bo‘yicha Yevropa va Osiyoning bir nechta shaharlari yetakchilik qilmoqda. Bunga misol qilib Gongkong (27,7 million), London (17,4 million), Singapur (17,1 million), Bangkok (16,2 million) va Parij (15,0 million) singari shaharlarni keltirish mumkin. Jahonning turistik sayohatlari rivojlangan davlatlaridagi tajribalaridan o‘rgangan holada yurtimizning go‘zal go‘shalarida turistik sayohatchilikni yanada rivojlantirish mumkin. Shu bilan birga, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Qo‘qon shaharlaridagi muqaddas qadamjolar va yodgorliklarni ziyorat qilish dasturini rivojlantirish va jadallashtirish zarur. Ichki turizm sohasidagi barcha imkoniyatlarni ham to‘liq ishga solish lozim.

O‘zbekiston xar tomonlama rivojlanish yo‘liga qadam qo‘ygan bir davrda qo‘shni mamlakatlar bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy munosabatlarni tobora rivojlantirib bormoqda. Buni biz O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi “Xavfsizlik millatlararo totuvlik diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash chuqur o‘ylangan o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish” nomli beshinchi yo‘nalishida bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoniga muvofiq 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 35-maqsadi ham ko‘rishimiz mumkin¹⁴. O‘zbekiston ham xalqaro tajribalardan unumli foydalangan holda O‘zbekistonga kelayotgan chet ellik turistlar sonini oshirish uchun “Shengen shartnomasi” singari shartnomani qo‘shni bo‘lgan Markaziy Osiyo, MDH mamlakatlari bilan tuzish mamlakat aholisining bir davlatdan ikkinchi bir davlatga erkin kirib chiqishi uchun viza tizimini bekor qilish lozim. Viza tizimini bekor qilish orqali bir tomondan qo‘shni mamlakatlar fuqorolari xarakatlanishida erkinliklar yaratib bersa, ikkinchi tomondan Markaziy Osiyo yoki MDHga tashrif uyushtirayotgan chet ellik sayyoh har bir tashrif buyuruvchi mamlakati uchun alohida-alohida viza olish muommosi ortiqcha ovoragarchilik muommosidan xolos bo‘ladi. Shu tadbirning o‘zi ham tashrif buyurayotgan sayyohlarni ortishiga zamin hozirlaydi. Negaki O‘zbekistonga kelgan turist faqat bizning yurtimiz go‘zalligidan bahramand bo‘ladi xolos, agarda shu tizim joriy etib amaliyotga tatbiq etiladigan bo‘lsa u holda qo‘shni mamlakatlarga kelgan sayyox bizni mamlakatga xam o‘tishi yoki aksincha bizni mamlakatga kelgan sayyoh qo‘shni respublikalarga o‘tib ketishi Markaziy Osiyoda ko‘proq bo‘lishi mumkin bo‘ladi, bu o‘z o‘rnida mamlakat iqtisodiyotiga aholini ish bilan band bo‘lish munosbatiga ijobiy tasir ko‘rsatadi.

¹⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoniga muvofiq 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. <https://lex.uz/docs/5841063#5843873>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda turizmni izchil rivojlantirish istiqbollariga bag‘ishlangan yig‘ilishida “O‘zbekiston ham sayohat, ham ziyorat uchun qulay mamlakat. Chunki ona zaminimizda butun dunyoga ma’lum va mashhur bo‘lgan ajdodlarimiz mangu qo‘nim topgan. Ular qoldirgan boy ma’naviy-madaniy merosga xalqaro maydonda qiziqish juda katta. Sohani yanada rivojlantirish uchun, avvalo, zarur infratuzilmani takomillashtirish shart. Birinchisi, transport, ikkinchisi logistika,”¹⁵ deb ta’kidlagan edi. Albatta, keng va ravon yo‘l qolaversa temir yo‘l logistikasi tizimi hozirgi kunda yevropaning ko‘zga ko‘ringan turistik markazlaridan orqada qolmoqda buni to‘g‘ri anglagan davlatimiz rahbari turizmni rivojlantirish uchun oldinga vazifa qilib qo‘ydilar. Bu vazifalarni bajarish uchun nimalar qilish lozim. Bizningcha,

Birinchidan, bizga qo‘shni bo‘lgan Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan bog‘lovchi transport logistika yo‘llarini qayta rekonstruktura qilib foydalanishga topshirish lozim.

Ikkinchidan, MDH davlatlari bilan bog‘lovchi yangi aviareyslarini tashkil qilish mavjudlarini ham narxlarini arzonlashtirish lozim.

Uchinchidan, mamlakatda turizmni rivojlantirish ko‘p jihatdan xizmat ko‘rsatish madaniyatini oshirishdan iborat. Ularga:

a) mavjud mexmonxonalarni jahon andozalari talabiga olib chiqish;

b) maishiy xizmat ko‘rsatish va mehmonlarga qulay shart – sharoit hamda imkoniyatlar yaratish;

v) eng muximi zamonaviy bilim va tafakkurga ega bo‘lgan gidlarni tayyorlash, ularni har tomonlama bilim va tajribasini oshirish. Bunda ikki muhim jihat O‘zbekiston tarixi va chet tillarini chuqur bilish lozim bo‘ladi

Dissertatsiyaning “Turizm xalqaro munosabatlar rivojining muhim omili sifatida” deb nomlangan ikkinchi bobida xaqaro munosabaitlar tizimida turizmning roli va ahamiyati ochib berilgan.

Xalqaro turizmning globallashuvining zamonaviy omillari qatoriga sayyoramizning aksariyat qismida aholining tinch-totuv yashashlari, ijtimoiy farovonlikning oshishi, jamoat ongi darajasining yaxshilanishi, iqtisodiy rivojlanish va hayot sifatini yaxshilash orqali demografik vaziyatning yaxshilanishi kiradi. Hozirgi vaqtda global jamiyatdagi xalqaro turizm aslida global turmush tarzining asosiga aylanmoqda. Globallashuv turizmida sodir bo‘layotgan jarayonlarga iqtisodiyotning boshqa sohalari singari ta’sir ko‘rsatdi.

1980-yillarning oxiridan boshlab xalqaro turizm siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar jarayonida vujudga keladigan shaxslararo va davlatlararo munosabatlarni rivojlantirish vositasi sifatida namoyon bo‘ldi. Turizm shunchaki iqtisodiy foyda manbaiga aylanmoqda, bu mamlakat nufuzi va uning dunyo hamjamiyati nazaridagi ahamiyatining o‘sishi uchun muhim omil hisoblanadi. Ilmiy bilimlarning rivojlanishi bilan turizm ko‘p qirrali ochiq tizim sifatida paydo

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda turizmni izchil rivojlantirish istiqbollari, sayyohlik obyektlaridan samarali foydalanish, ko‘rsatilayotgan xizmat turlari sifatini oshirish, yurtimizga tashrif buyurayotgan sayyohlar oqimini ko‘paytirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar tahliliga bag‘ishlangan yig‘ilish. <http://uza.uz/oz/politics/turizmni-yanada-rivozhlantirish-masalalari-mu-okama-ilindi-03-10-2017> murojaat sanasi: 03.02.2020

bo'ldi, uni o'rganish muayyan siyosiy va iqtisodiy hodisa sifatida tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Shu munosabat bilan xalqaro munosabtlar tizimida turizm omilini tadqiq qilish mavjud sohalarini har tomonlama baholash orqali ushbu murakkab tizimning bir qismi bo'lgan tizimli yondoshishga imkon beradi.

Bizning fikrimizcha, xalqaro munosabatlarda turizmning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

- turizmning siyosiy vazifasi uning tinchlikni mustahkamlashda, xalqaro aloqalarni rivojlantirishda, xalqlar o'rtasidagi aloqalarni kengaytirishdagi muhim roli bilan belgilanadi;

- turizmning iqtisodiy funksiyasi insonni jamiyatning asosiy ishlab chiqarish kuchi sifatida tutgan o'rni bilan belgilanadi. Tashqi makonni samarali tashkil etish tizimi ishchi kuchining ko'payishini ta'minlaydi, insonning intellektual darajasini oshirishga yordam beradi, bu mamlakatlarning siyosiy va iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

- zamonaviy dunyoda turizmning ekologik funksiyasi muhim rol o'ynay boshlaydi. Ekoturizmning jadal rivojlanishi tufayli odamlar o'zlarining zaifliklari va tabiiy muhitning mo'rtligi, dunyo hamjamiyatining globallashtirish sharoitida atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlarini kengaytirish zarurligini anglash orqali tabiatga qaytmoqdalar;

- turizmning ijtimoiy funksiyasi bizga turizmni davlatning ijtimoiy holatining ko'rsatkichi sifatida qarashga imkon beradi va uning aholisi hayotining sifat ko'rsatkichi hisoblanadi.

Bugungi kunda turizm butun dunyo siyosiy munosabatlar tizimiga, ko'plab davlatlar va hatto butun mintaqalarning siyosiy munosabatlariga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Zamonaviy dunyo turizmining muvaffaqiyati so'nggi 30 yil ichida aniq namoyon bo'ldi. Ushbu davrda xalqaro sayyohlar soni 3,8 baravar, turizmdan tushgan valyuta tushumlari esa 25 baravarga ko'paydi. Jahon tajribasi, shuningdek, dunyoning rivojlangan mamlakatlarining iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy barqarorligi amaliyoti, davlatning ma'lum bir jug'rofiy joylashuvi, shuningdek, uning tabiiy-iqlim resurslari, turli diqqatga sazovor joylari turizm tufayli rivojlanganligini tasdiqlaydi.

Xozirda xizmat ko'rsatish sohasining eng dinamik yo'nalishlaridan biri turizm, ayniqsa xalqaro turizmdir. Xalqaro sayyohlar soni doimiy ravishda o'sib bormoqda. Bugungi kunda turizm turli mamlakatlarda 100 millionga yaqin kishini ish bilan ta'minlaydi. O'zbekistonda turizm xizmat ko'rsatish sohalaridan biri sifatida juda kam rivojlangan.

Ilmiy doiralarda olib borilayotgan tadqiqotlarda turizmni xalqaro munosabatlarga ta'sirini o'rganish bo'yicha quyidagi masalalar o'rganilmoqda:

- zamonaviy xalqaro munosabatlar konsepsiyasini aniqlash;
- xalqaro turizmning paydo bo'lishi va uning zamonaviy xalqaro munosabatlardagi rolini o'rganish;

- turizmni xizmatlarning xalqaro savdosining asosiy tarmog'i sifatida ko'rib chiqish;

- turizm sohasidagi xalqaro hamkorlikni o'rganish va hokazolar.

XX asrning so‘nggi o‘n yilligida xalqaro iqtisodiy munosabatlarning yangi shakllari va birinchi navbatda xizmatlar bozori jadal rivojlanmoqda. Xizmatlar xalqaro savdosining eng tez rivojlanayotgan shakllaridan biri bu xalqaro turizmdir. Jahon sayyohlik tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, xalqaro turizm jahon yalpi ichki mahsulotining 11 foizini, dunyo eksportining 6 foizini tashkil qiladi, har 10 ishchi xizmat ko‘rsatish sohasi bilan bog‘liq.

Xalqaro aloqalarning zamonaviy rivojlanishining umumiy tizimida tashqi turizm muhim siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa muhim vazifalarni bajaradi. XX asr oxirida aniqlangan tendensiyalarga ko‘ra, milliy iqtisodiyotga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadigan xalqaro turizmning jadal o‘shishi XXI asrning global siyosiy va iqtisodiy rivojlanishni belgilab bermoqda.

XX asrning oxiriga kelib, odamlarning sayyohlik maqsadlari uchun harakati dunyoning barcha mamlakatlariga, shu jumladan ilgari yopiq xorijiy davlatlarning rivojlanishida faol ishtirok etgan O‘zbekiston fuqarolariga ham ta‘sir qildi. Tabiiyki, xalqaro turizm tizimiga tobora faol qo‘shilish uning mohiyatini chuqur anglashni talab qiladi, chunki xalqaro turizmni har tomonlama baholash davlatga katta foyda keltiradi va iqtisodiy siyosatni shakllantirish va uni amalga oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Doimiy rivojlanayotgan turizm tizimi elementlarining murakkab va ziddiyatli munosabatlarini hisobga olgan holda xalqaro turizmning xalqaro munosabatlar tizimidagi o‘rni va rolini aniqlashni talab etmoqda.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar hal qilinishi talab etiladi:

- XX asr oxiri – XXI asr boshlarida xalqaro turizmning rivojlanish tendensiyalari va asosiy yo‘nalishlarini aniqlash;
- xalqaro munosabatlar tizimida xalqaro turizmning rolini ochib berish;
- xalqaro turizmning turli mamlakatlar guruhlarida milliy siyosati va iqtisodiyotiga ta‘sirining zamonaviy yo‘nalishlari va shakllarini aniqlash;
- xalqaro munosabatlar tizimida O‘zbekistonning xalqaro turizmni rivojlantirishdagi muammolar va qarama-qarshiliklar majmuasini va uni belgilovchi omillarni aniqlash;
- global darajada xalqaro munosabatlar tizimida O‘zbekiston turizmini rivojlantirish muammolari va o‘ziga xususiyatlari aniqlash;

Shuni alohida ta‘kidlash joizki, XXI asrning boshlarida xalqaro turizm sohasidagi O‘zbekiston siyosati tashqi siyosatining ajralmas qismiga aylandi. Bu sohada O‘zbekiston tashqi siyosatining ma‘naviy yo‘nalishi, insonparvarlik, oshkorlik, qadr-qimmat o‘z imkoniyatlariga tayanish va insoniyatning yagona oilasida o‘z taraqqiyot yo‘liga ega bo‘lish bilan belgilanadi. Hozirda xalqaro hamjamiyat mustaqil O‘zbekiston diplomatiyasining dastlabki qadamlari, Markaziy Osiyodagi mavqei, mintaqa xavfsizligini ta‘minlashdagi o‘rni va ahamiyatini tan olmoqda.

O‘zbekistonning halqaro maydonda turizm siyosati bo‘yicha maqomini oshirishga doir ko‘plab masalalar o‘z yechimini topmoqda. Bu o‘rinda, mamlakat turizm siyosati jahon halqaro maydoniga kirib boruvchi asosiy yo‘l xaritalaridan biridir. Shu asosda tizimli ishlar yo‘lga qo‘yilib qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

Siyosiy tahlillarimiz natijasiga ko'ra, O'zbekiston sayyohlik sayohatining asosiy omillari quyidagilardan iborat deb hisoblaymiz.

Birinchi, Tarixiy-boy madaniy me'ros obyektlarga egaligi,

Ikkinchi, O'zbekiston Markaziy Osiyoda ekoturizm eng rivojlangan yetakchi davlatdir. Bu borada tibbiy yo'nalishlarga ega maskanlarining mavjudligi bilan sayyohlar e'tiborini qozonib keladi.

Ammo mana shu omillar bilan O'zbekiston turizm sohasida halqaro maydonga to'laqonli darajada kirib boradi deb ayta olmaymiz. Bajarilishi lozim bo'lgan muammolar ham talaygina. Jumladan: yo'llarning xalqaro talab standartlarida emasligi, soxaga axborot texnologiyalarining yetarli darajada joriy qilinmaganligidir.

Fikrimizcha, siyosiy jihatdan O'zbekistonning xalqaro turizmni rivojlantirishidan ko'zlangan asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- xalqaro miqyosda iqtisodiy o'sish katta miqdordagi tovarlar va sifatli xizmatlar ishlab chiqarishni, shuningdek, aholi turmush tarzining yuqori bo'lishini ta'minlash.

- xalqaro munosabatlar tizimida turizm omilini kuchaytirish;
- turizmdan "yumshoq kuch" vositasi sifatidan foydalanish;
- mamlakati iqtisodiyoti samaradorligini oshirishda turizm resurslardan foydalanish;

- xalqaro munosabatlar tizimida turizm yordamida "xalq diplomatiyasini" rivojlantirish;

- aholining tursitlarga nisbatan tolerantligi, madaniyati va bilim darajasini oshirish hamda O'zbekistonni jahon sivilizatsiyasi, madaniyatiga intergarsiyasini ta'minlash;

- hamkor davlatlar bilan turistik xizmatlar ko'rsatish orqali o'zaro madaniy - tarixiy va milliy qadriyatlarni ayirboshlash va b.

Hozirgi kunda xalqaro munosabatlar tizimida "xalq diplomatiyasi" tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Ta'kidlash joizki, xalq diplomatiyasi davlatlarning xorijiy davlatlar jamiyatlari bilan to'g'ridan-to'g'ri o'zaro munosabatlari tizimi sifatida rivojlanib bormoqda.

Bular uzoq muddatli munosabatlarni o'rnatishga, milliy tashqi siyosat maqsadlarini himoya qilishga va chet elda o'z davlatining qadriyatlari va vositalarini yaxshiroq anglashga qaratilgan harakatlardir. Biroq, hozirgi vaqtda "yangi xalq diplomatiyasi" atamasi xalqaro munosabatlarda XXI asrning birinchi o'n yilligi o'rtalarida ro'y bergan mikro-siyosiy va texnologik o'zgarishlar natijasida paydo bo'lgan.

Xalqaro munosabatlarda turizmning rivojlanishi ham "xalq diplomatiyasi" asosida davlatlararo munosabatlarni "yumshoq kuch" texnologiyalari asosida shakllanmoqda. *"Zamonaviy bosqichda muayyan davlatlar xalqaro munosabatlarning faol ishtirokchisi sifatida kutilgan natijalarga erishish maqsadida turizm omilidan va "yumshoq kuch" vositalaridan samarali foydalanmoqda"*¹⁶.

¹⁶ Joseph S. Ne. Soft Power. The Means to Success in World Politics. Cambridge, 2004. P. 5.

Hozirgi vaqtda turizm “*yumshoq kuch*”ning samarali vositasidir. Bu norasmiy, ammo ayrim fuqarolar va tijorat tuzilmalarining xalqaro maydonda davlatning milliy va ijtimoiy manfaatlarini amalga oshirishga qaratilgan katta ahamiyatga ega.

Dissertatsiyaning “O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvida turizmning o‘rni” deb nomlangan bobida jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv jarayonlarida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlar tahlil qilingan. Dunyoga mashxur Crescent Rating kompaniyasi 2008 yilda tashkil etilgan bo‘lib, halol do‘stona sayohat va turizm sohasida yetakchi tashkilot hisoblanadi. Bu kampaniya dunyo bo‘ylab musulmon sayohatchilarining sayohatlarini uyushtiradi. Kampaniya xar yili halol turizm indeksi bo‘yicha reyting tuzadi. Reyting o‘z ichiga 130 ta davlatni qamrab oladi va bu reytingni tashkil etuvchi asosiy mezonlar 11 tani tashkil etadi. Global Muslim Travel Index 2017 yilda o‘tkazilgan halol turizm bo‘yicha reytingida O‘zbekiston 28 o‘rinni egalladi. Uning “Safe Travel environment score” yo‘nalishi ya‘ni “Xavfsiz sayoxat muxitini baholash” bo‘yicha 100 balli mezonda 84.0 ball bilan belgilanadi. Bu reytingdan ko‘rinib turibdiki O‘zbekistonda keyingi yillarda turizm sohasida xususan turistlarning xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha juda ko‘plab xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Sohani yanada rivojlantirishga, uni har tomonlama zamonaviy talablarga javob beradigan va xizmat ko‘rsatish, servis sohasini takomillashtirish aholi turmush tarzini yuksaltirishning muhim omili sifatida qaralmoqda.

O‘zbekistonda xavfsiz turizm konsepsiyasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

turistik namoyish obyektlari va infratuzilmalari hududlarida jamoat tartibini saqlaydi, huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashni ta‘minlaydi;

turistlarni potensial tahdidlar to‘g‘risida o‘z vaqtida xabardor qiladi, shuningdek huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ularga tez yordam ko‘rsatish bo‘yicha vazifalarni bajarishni ta‘minlaydi;

avtomobil, temir yo‘l va havo transporti infratuzilmalarida jamoat xavfsizligini ta‘minlaydi;

